

60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi

60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish bakalavriat ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta’lim shakllari bo‘yicha o‘qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

60812000 – Issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va yuritish bakalavriat ta’lim - fan va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish sohasi yo‘nalishi bo‘lib, yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslaridan samarali foydalanishni oshirish maqsadida meva va sabzavot mahsulotlarini mavsumdan tashqari davrlarda ishlab chiqarish, issiqxona xo‘jaligida qishloq xo‘jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, issiqxona xo‘jaligini tashkil etish va uni samarali yuritish, issiqxona xo‘jaligi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hosildorligi va sifatini oshirish, kasbiy faoliyatida texnik vositalardan oqilona foydalanish usul va uslublari majmuasini uz ichiga oladi.

Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

- yer, suv, energetik va moddiy-texnika resurslari, issiqxona xo‘jaligi ekinlari;
- kimyoviy va biologik kurash vositalari, texnik asbob uskunalari, qishloq xo‘jaligi texnikalari, agrotexnik tadbirlar;
- ilmiy tadqiqot jarayonlari;
- issiqxona xo‘jaliklarining boshqaruv tizimlari;
- kasallik va zararkunandalar bilan zararlangan issiqxona xo‘jaligi ekinlari.